



INNOVATIVE WORLD  
Ilmiy tadqiqotlar markazi

# ZAMONAVIY ILM-FAN VA TA'LIM: MUAMMO VA YECHIMLAR ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA



Google Scholar  zenodo  Open AIRE



+998335668868

<https://innoworld.net>

# 2026



**«INNOVATIVE WORLD» ILMIY TADQIQOTLARNI QO'LLAB-  
QUVVATLASH MARKAZI**

**«ZAMONAVIY ILM-FAN VA TADQIQOTLAR: MUAMMO VA  
YECHIMLAR» NOMLI 2026-YIL № 5-SONLI ILMIY, MASOFAVIY,  
ONLAYN KONFERENSIYASI**

**ILMIY-ONLAYN KONFERENSIYA TO'PLAMI  
СБОРНИК НАУЧНЫХ-ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЙ  
SCIENTIFIC-ONLINE CONFERENCE COLLECTION**

Google Scholar



ResearchGate

zenodo



ADVANCED SCIENCE INDEX



Directory of Research Journals Indexing

[www.innoworld.net](http://www.innoworld.net)

O'ZBEKISTON-2026

## Qishloq xo'jaligida texnik modernizatsiya kilishda xorijiy tajribalar Turayeva Gulizahro

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Guliston davlat universiteti dotsenti

ORCID: 0000-0002-5764-315X

[zakhroturaeva@gmail.com](mailto:zakhroturaeva@gmail.com), +998 94 585 19 84

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada g'allachilik tarmog'ida innovatsion texnologiyalarni joriy etish asosida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish masalalari ilmiy jihatdan tadqiq etilgan. Tadqiqot jarayonida xorijiy mamlakatlarning texnik modernizatsiya va innovatsion rivojlanish bo'yicha ilg'or tajribalari tahlil qilinib, ularni mahalliy sharoitga moslashtirish imkoniyatlari asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar:** g'allachilik tarmog'i, innovatsion texnologiyalar, texnik modernizatsiya, ishlab chiqarish samaradorligi,

**Kirish.** Bugungi kunda jahon miqyosida aholi sonining o'sishi, global iqlim o'zgarishlari hamda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash masalalarining keskinlashuvi qishloq xo'jaligi, xususan g'allachilik tarmog'ini innovatsion asosda rivojlantirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Don mahsulotlari aholi iste'mol savatida muhim o'rin egallab, ularning barqaror va samarali ishlab chiqarilishi mamlakat iqtisodiy xavfsizligining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Rivojlangan mamlakatlarning qishloq xo'jaligida texnik modernizatsiya bo'yicha to'plangan ilg'or tajribalarini o'rganish va ularni mahalliy sharoitga mos tarzda joriy etish innovatsiyaga tayanadigan g'alla ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Xususan, Germaniya, Buyuk Britaniya, Kanada, AQSh va Yaponiya amaliyotida texnik modernizatsiya jarayoni faqat yangi traktor yoki kombayn sotib olish bilan cheklanmay, balki "to'liq servis ekotizimi" (sotuvdan keyingi xizmat, ehtiyot qismlar, doimiy maslahat, kafolat, joriy va kapital ta'mir, operator va muhandis-texnik kadrlarni tayyorlash) bilan uyg'un tashkil etilgani bilan ajralib turadi. Bunday yondashuv texnika ishlash uzluksizligini ta'minlaydi va g'allachilikda resurslardan foydalanish samaradorligini oshiradi. Xorij tajribasida dilerlik (dealer) tarmog'ining rivojlangani texnik modernizatsiyani tezlashtiruvchi asosiy institutlardan biri sifatida qaraladi. Dilerlik punktlari xo'jaliklarning yangi asbob-uskunalarga bo'lgan talabini qondirish bilan birga, texnikani sotish, ijaraga berish, ehtiyot qismlar yetkazib berish, tezkor servis va ta'mirlash, texnik ekspluatatsiya bo'yicha konsultatsiya, mexanizatorlar malakasini oshirish kabi xizmatlarni yagona paketda taqdim etadi. Bu esa innovatsion texnologiyalarni joriy etishning tashkiliy-texnologik risklarini kamaytiradi, nosozliklar sababli yuzaga keladigan yo'qotishlarni qisqartiradi va hosildorlik barqarorligiga xizmat qiladi.

### 1-jadval. Qishloq xo'jaligida texnik-texnologik modernizatsiyani rivojlantirishda xorijiy tajribalar

Mavjud myammolar	Xorij tajribasining mazmuni
Germaniya va Angliya tajribalari	

Faoliyat yuritayotgan qishloq xo'jaligi texnikalarini sotuvchi korxonalarining fermerlarga faqatgina texnika, asbob-uskuna va jihozlarni sotish bilan cheklanib qolishi.	Zavodlar nafaqat yangi texnika va asbob-uskunalarga bo'lgan talabni qondirishi, balki mexanizatsiya xizmatlarini ko'rsatish, injener-texnik xodimlar bilan ta'minlash hamda ularning malakasini oshirishni ham o'z ichiga oladi.
<b>Qozog'iston va Tojikiston tajribalari</b>	
Qishloq xo'jaligi sohasiga texnika va texnologiyalarni sotib olish uchun davlat tomonidan beriladigan kredit mablag'larining yetishmasligi.	Mamlakatimizdagi mavjud texnika ishlab chiqaruvchilarni hamda ularga butlovchi qismlar yetkazib beruvchi tadbirkorlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, mahalliyashtirish darajasini oshirish maqsadida ularga subsidiya berish mexanizmlarini takomillashtirish zarur.

xorij tajribasidan kelib chiqib, g'allachilikda texnik modernizatsiyani faqat "texnika yangilash" sifatida emas, balki "texnika + servis + kadrlar + raqamli monitoring + maslahat (agrokonsalting)" integratsiyalashgan tizimi sifatida tashkil etish ilmiy-amaliy jihatdan asosli yo'nalish hisoblanadi. Ayniqsa, agrokonsalting xizmatlari orqali fermerlarni texnologik tanlov, servis shartnomalari, ehtiyot qismlar logistikasi, iqtisodiy hisob-kitob va bozordagi narx kon'yunkturasi (jumladan birja axborotlari) bilan ta'minlash innovatsion texnologiyalarni joriy etish samaradorligini oshirishning muhim tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi bo'lib xizmat qiladi.

**Xulosa.** O'tkazilgan tadqiqotlar natijasida g'allachilik tarmog'ida innovatsion texnologiyalarni joriy etish ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri ekanligi ilmiy jihatdan asoslandi. Xorijiy mamlakatlar tajribasining tahlili shuni ko'rsatdiki, texnik modernizatsiya, raqamli texnologiyalar va servis xizmatlari bilan uyg'unlashgan innovatsion yondashuv g'alla yetishtirishda resurslardan oqilona foydalanish, hosildorlikni oshirish va bozor tavakkalchiliklarini kamaytirishga xizmat qiladi. Tadqiqot jarayonida innovatsion texnologiyalarni joriy etish darajasini baholash, texnik-texnologik bazani modernizatsiyalash va agrokonsalting xizmatlarining o'rnini yoritildi. Aniqlanishicha, fermer xo'jaliklarini texnologik, axborot va don bozori (birja) ma'lumotlari bilan ta'minlash ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni PF-5853. "Qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020–2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasi to'g'risida". 2019 yil 23 oktyabr.
2. Aliyev Ya.E. (2020). Qishloq xo'jaligi mahsulotlari, resurslari va xizmatlari bozorlarini rivojlantirish. Toshkent.
3. Turayeva, G. (2025, December). Innovation efficiency in the grain sector. In International Conference on Medicine & Agriculture (Vol. 1, No. 3, pp. 54-56).

4. Turayeva, G. (2025, December). Assessment of wheat production sustainability based on the principles of the "green economy". In International Conference on Business & Management (Vol. 1, No. 3, pp. 53-55).
5. Abdurasulovna, K. I., Ergashevich, Y. K., & Abdukhalilovich, S. A. (2018). Horizons and challenges of the silver nanoparticles application in the practical medicine. *European science review*, (7-8), 122-127.
6. Kamilova, I. A., Pakhomova, J. E., & Nadjmutdinova, D. K. (2020). Analysis of the role of 1G/2G polymorphism in the MMP1 gene in the development and clinical course of cervical intraepithelial neoplasia. *European Journal of Molecular and Clinical Medicine*, 7(2), 850-859.
7. Dilbar, N., Iroda, K., & Umida, S. (2022). The role of molecular genetic markers in the clinical course of cervical intraepithelial neoplasia.
8. Kamilova, I., & Umarov, A. (2025). The Role of Lipid Peroxidation and Activity of The Blood Antioxidant System in The Development of Postpartum Endometritis and Their Prognostic Significance. *International Journal of Medical Sciences And Clinical Research*, 5(05), 96-104.
9. Abdurasulovna, K. I. (2021, October). Effect Of A Combination Of Polymorphic Locus Of Genes For Detoxification Of Enzymes Of Estrogen Metabolism In The Risk Of Cervical Neoplasia. In The 8th International scientific and practical conference "Results of modern scientific research and development"(October 17-19, 2021) Barca Academy Publishing, Madrid, Spain. 2021. 523 p. (p. 51).
10. Kamilova, I. A. (2020). Individual prediction of the development of cervical intraepithelial neoplasia in women to medical and social risk factors. *Toshkent tibbiyot akademiyasi axborotnomasi*, (1), 112-115.
11. Abdurasulovna, K. I., & Oybekovna, K. S. (2025). Predicting preeclampsia in early pregnancy. *France-scientific review of the problems and prospects of modern science and education*, 1(4), 23-26.
12. Kamilova, I. A. (2021). The role of the genetic polymorphism of the gene-oncosuppressor TP53 rs 17884159 in women with cervical intraepithelial neoplasia. *Central Asian Journal of Medical and Natural Science*, 2(3), 31-36.
13. Akhmadzhonova, G., Nazhmutdinova, D., Negmatshoeva, K., & Iroda, K. (2024). Assessment of the Microbial Flora of the Genital Tract and the Morphofunctional State of the Endometrium in Antiphospholipid Syndrome. *New Visions in Medicine and Medical Science Vol. 2*, 184-193.
14. Najmutdinova, D. K., Kamilova, I. A., & Umarov, A. R. (2023). Pelvic Organ Prolapse, Methods of Surgical Correction of Pelvic Organ Prolapse, Literature Review. *Central Asian Journal of Medical and Natural Science*, 4(1), 16-19.

